

**KONFERENSIYALAR UZ**

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**AVGUST, 2025-YIL**





# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**Mas’ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### **TEXNIKA FANLARI**

*Фозилжонов Хожиақбар*

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ  
СВТ..... 7-11

*Mamadaliyeva Gulhayo*

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI  
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI ..... 12-16

*Iskandarov Orifxon*

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

### **TARIX FANLARI**

*Bobojonova Zuxra*

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI  
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI ..... 24-25

*Xasanova Nargiza*

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA ..... 26-29

*Rustamova Nigora*

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI ..... 30-32

*Xalilov Baxodir*

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"  
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) ..... 33-37

*Норов Шухрат*

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) ..... 38-41

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) ..... 42-43

### **IQTISODIYOT FANLARI**

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
METODIKASI ..... 44-47

*Abduraimova Nigora*

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH  
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI ..... 48-51

*Sidiqov Jasurbek*

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

*Nematova Dilnoza*

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 57-63

*Axmedova O'g'ilshod*

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI  
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI ..... 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR .....	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI .....	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
<b>FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI .....	93-98
<b>FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI .....	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI .....	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK MIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI .....	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI .....	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI .....	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI .....	146-149
<b><i>YURIDIK FANLARI</i></b>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI .....	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES .....	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI .....	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR .....	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH .....	170-175
<b><i>PEDAGOGIKA FANLARI</i></b>	
<i>Hurillaeva Uzulxon</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ .....	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI .....	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI .....	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI .....	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI .....	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI .....	203-206

*Sattoriy Shohruh*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI ..... 207-210

### **TIBBIYOT FANLARI**

*Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza*

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

*Мамадалиев Хасанхон*

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

*Махмудбеков Бобурмирзо*

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

### **PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Усманова Лилия*

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ ..... 222-225

### **SIYOSIY FANLAR**

*Sa'diyev Bahodir*

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

## MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

### **Tuychiyev Anvarjon Muxtorjonovich**

Toshkent davlat transport universiteti

"Korporativ boshqaruv" kafedrasida katta o'qituvchisi

Email: [anvarjontuychiyev@gmail.com](mailto:anvarjontuychiyev@gmail.com)

Tel: +998 97 455 45 47

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1622-7691>

Toshkent, O'zbekiston

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatda xizmatlar ko'rsatish sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari, shu jumladan innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududiy tafovutlarni qisqartirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Maqolada xalqaro tajribadan ham foydalanilgan bo'lib, milliy xizmatlar sohasining raqobatbardoshligini oshirishning samarali yo'llari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar sohasi, iqtisodiy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, ichki bozor, zamonaviy xizmatlar, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi, raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish.

## OPPORTUNITIES FOR DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S SERVICES SECTOR

### **Tuychiyev Anvarjon Mukhtorjonovich**

Senior Lecturer, Department of "Corporate Governance",

Tashkent State Transport University

**Annotation.** This article analyzes the current development trends of the services sector in the country, its role and importance in the national economy. It explores the opportunities for further advancement of the services sector, including the introduction of innovative approaches and digital technologies, reduction of regional disparities, and improvement of service quality provided to the population. The study also draws on international experience and discusses effective ways to enhance the competitiveness of the domestic services sector.

**Key words:** services sector, economic development, digital technologies, innovations, domestic market, modern services, economic structure, competitiveness, regional development.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-17>

Hozirgi global iqtisodiyotda xizmatlar ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohaning jadal rivojlanishi mamlakatda ish bilan bandlik darajasini oshirish, aholining turmush sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xizmat turlarini diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiyotning samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va globallashtirish jarayonlari xizmatlar ko'rsatish sohasining yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda. Mamlakatda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali yalpi ichki mahsulotda yuqori ulushga erishish, eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, turizm, transport, moliyaviy xizmatlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi yo'nalishlarning kompleks rivojlanishi milliy

iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Demak, xizmatlar sohasining rivojlanish imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish mamlakatning kelgusi iqtisodiy strategiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globallashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subektlarini yanada qo'llabquvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Quyidagi grafikda 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda ko'rsatilgan ko'rsatkichlarning hajmi (mlrd so'mda) va yillik o'sish sur'atlari (%) tasvirlangan.



**1-rasm. Mamlakat xizmatlar sohasining hajmining dinamikasi, mlrd so'm.**

Grafikdan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan besh yillik davr mobaynida doimiy ravishda ijobiy o'sish kuzatilgan. 2020-yilda umumiy hajm 219 978,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bu tahlil davrining boshlang'ich nuqtasidir. Shu yili o'sish sur'ati 3,0% bo'lgan bo'lib, bu boshqa yillarga nisbatan eng past ko'rsatkichdir. Bu esa, ehtimol, pandemiya ta'sirida iqtisodiy faollikning sustlashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2021-yilda ko'rsatkich sezilarli darajada oshib, 284 388,1 mlrd so'mga yetgan. O'sish sur'ati 19,5% ni tashkil etib, bu davr ichidagi eng yuqori o'sish darajasidir. Bu davrda iqtisodiy tiklanish jarayonlari faollashgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. 2022-yilda o'sish davom etib, hajm 366 891,0 mlrd so'mga

yetgan. O'sish sur'ati 16,3% ni tashkil qilgan. Bu avvalgi yilga nisbatan biroz past bo'lsa-da, barqaror o'sish tendensiyasi saqlanib qolganini ko'rsatadi.

2023-yilda esa hajm keskin oshib, 649 806,4 mlrd so'mga yetgan. Bu yilda o'sish sur'ati 14,1% bo'lib, yuqori hajm fonida o'sishning biroz pasayganini anglatadi. Bu iqtisodiy o'sishning barqarorlashayotgan bosqichi sifatida talqin qilinishi mumkin. 2024-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, hajm 818 428,3 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda. O'sish sur'ati 12,9% deb baholanmoqda. Bu esa o'sish sur'atining biroz sekinlashayotganini bildiradi, biroq umumiy hajmning yildan-yilga ortib borayotganini inobatga olgan holda, bu holat ijobiy baholanadi. Umumiy xulosa shuki, 2020–2024-yillar mobaynida iqtisodiy ko'rsatkichlar muntazam o'sib borgan. Har yili hajm oshib borgan bo'lsa-da, o'sish sur'atlari yildan-yilga biroz pasaygan. Bu esa iqtisodiy tizimning barqarorlik bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 36,5 %, ya'ni 298 825,6 mlrd so'mni tashkil etdi. 2023 yilga nisbatan ushbu hududning o'sish sur'ati 116,8 % ga yetgan. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 609,1 mlrd so'mni yoki jami xizmatlar hajmining 1,4 % ini tashkil etdi. O'sish 12,2 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning 20,6 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 3,4 punkt), savdo xizmatlari 11,8 %ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 10,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 25,8 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), transport xizmatlari 8,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarning 13,4 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2024 yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi tahlil qilinganda, ushbu tarmoq umumiy ravishda barqaror o'sishga erishgani aniqlanadi. Jumladan, xizmatlar sohasi umumiy hajmi 818 428,3 milliard so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 112,9 foizga o'sgan. Bu esa iqtisodiyotning ushbu segmentida tuzilmaviy o'zgarishlar va turli xizmat ko'rsatish sohaslaridagi faol investitsiyalarning borishi bilan bog'liq.

#### 4-jadval.

#### Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar

Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar xajmi, mlrd. so'mda		Ulushi % da	O'sish surati, % da
	2023 y.	2024 y.		
Xizmatlar-jami	64 9806,4	818 428,3	100,0	112,9
Shundan asosiy turlari bo'yicha:				
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	39 064,4	56 174,2	6,9	125,8
Moliyaviy xizmatlar	107 290,6	135 509,5	16,5	120,6
Transport xizmatlari	114 553,3	145 124,4	17,7	108,6
Shu jumladan: avtotransport xizmatlari	57 099,7	72 604,7	8,9	112,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	144 234,3	183 314,5	22,4	110,6

Savdo xizmatlari	125 995,0	149 599,8	18,3	111,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	16 554,0	20 633,1	2,5	113,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	24 533,1	30 036,5	3,7	113,4
Sog'likni saqlash sohasidagi xizmatlar	12 858,4	15 778,7	1,9	109,4
Ijara xizmatlari	7 560,6	9 707,6	1,2	105,5
Kompiyuterlar va maishiy tavarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	9 475,5	11 848,2	1,4	112,3
Shaxsiy xizmatlar	12 107,3	15 462,0	1,9	109,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va taxlil sohasidagi xizmatlar	8 854,9	11 200,6	1,4	103,9
Boshqa xizmatlar	26 725,0	34 039,2	4,2	107,9

Hizmat turlari ichida eng yirik ulushga ega bo'lgani yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'lib, ularning umumiy hajmi 183 314,5 milliard so'mni tashkil etdi, bu esa xizmatlar bozoridagi umumiy ulushning 22,4 foiziga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich mehmonxona biznesi, umumiy ovqatlanish shoxobchalari va turizm bilan bog'liq xizmatlar sonining ortishi natijasida vujudga kelgan. So'nggi yillarda turistlar oqimining ortishi va ichki turizmga bo'lgan talabning o'sishi mazkur sohaning o'sishiga turtki bergan asosiy omillardan biri bo'ldi.

Savdo xizmatlari ham yuqori faollikni namoyon etgan. Ushbu turdagi xizmatlar 149 599,8 milliard so'mni tashkil etgan holda, umumiy hajmdagi ulushi 18,3 foizni tashkil etdi. Bu esa chakana va ulgurji savdo faoliyatining kengayishi, elektron tijorat sohasining o'sishi va logistika infratuzilmasining yaxshilanishi bilan bog'liqdir.

Transport xizmatlari jami 145124,4 milliard so'mlik ulush bilan xizmatlar sohasida uchinchi o'rinni egalladi. Ularning umumiy ulushi 17,7 foizni tashkil etib, 2024 yilda o'sish sur'ati 108,6 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich, jumladan, avtotransport xizmatlari hissasi bilan ham quvvatlandi — mazkur yo'nalishdagi hajm 72 604,7 milliard so'mni tashkil qildi. Bu esa yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning yuqoriligini aks ettiradi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 50,0 % ni tashkil etdi. Havo transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ulushi 14,5 % ni, quvurlar orqali – 13,9 % ni tashkil etdi. Yordamchi transport faoliyati 12,5 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, temir yo'l transporti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar transport xizmatlarining umumiy hajmida 9,1 % ni tashkil etdi. 2024 yilda O'zbekistonda xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotidagi muhim drayverlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Xizmatlarning turlari va ularning dinamikasini tahlil qilish, mamlakatdagi soha ichidagi muvozanat va investitsiya salohiyatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat xizmatlar ko'rsatish sohasi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida ulkan imkoniyatlarga ega. Bu sohaning samarali rivojlanishi ish bilan bandlikni oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, xizmat turlarini diversifikatsiya qilish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali sohaning barqaror o'sishiga erishish mumkin. Turizm, transport, moliya va

axborot-kommunikatsiya xizmatlari kabi yo'nalishlarning integratsiyalashgan rivojlanishi esa mamlakatning jahon bozorida nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Demak, xizmatlar ko'rsatish sohasidagi mavjud imkoniyatlarni to'liq amalga oshirish kelgusida milliy iqtisodiyotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning muhim garovidir.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Инглхарт Р. Постмодерн: меняющиеся ценности и изменяющиеся общества // Полис. – Москва, 1997. – №4. – С. 6-32.
2. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. –Тошкент: Университет, 2005. – 388 б. [1; В.7.]

# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2025-yil, 05-avgust

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM  
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.